

621
R-99

DILSHOD RO'ZIQULOV

DEHQŌNI SO'Z



ADABIY-TANQIDIY MAQOLALAR

• KITORIM •



• BIRINCHI •

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

--	--

me

8d1
R-99

- 1415 -

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

DILSHOD RO'ZIQULOV

D

EHQONI SO'Z

Badiiy publitsistika



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLII VA O'RTA MAHBUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Nashr uchun mas'ul:

G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari

Mas'ul muharrir:

Salim ASHUR

Dilshod bobo-buvilarning ertaklari va kitob mutolaasiga oshno bo'lib ulg'aygani bois yozgan maqolalari tarbiyaviy ahamiyatga yo'g'rilgan. Bu boradagi bugungi dolzarb muammolar yechimi uch muhim unsur - xalq og'zaki ijodi namunalari, kitob mutolaasi va shaxsiy namunada ekaniga kuyunchaklik bilan e'tiboringizni tortadi. Farzand tarbiyasida sharqona yondashuvimizga doir qiziqarli detallarga boy maqolalari o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib, "Jod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6781-2-5

© D. Ro'ziqulov, 2020
© "Adabiyot", 2020

EL DARDINI O'Z DARDI DEB...

Dilshod Ro'ziqulov publitsistik maqolalari bilan davriy matbuotda muntazam qatnashib keladi. Uning "Dehqoni so'z" kitobida rang-barang mavzulardagi maqolalar jamlangan. Bu bitiklar yosh qalamkashning kelajagi-ga muayyan umid uyg'otadi.

Kitobdagi "Monitor bola" deb nomlangan birinchi maqolada dolzarb mavzu qalamga olingan. Bugungi shiddatli zamonda, axborot texnologiyalari beqiyos darajada rivojlangan hozirgi davrda internet yoshlar hayotida muhim o'rin tutmoqda. Bir toifa bolalar, o'smirlar va yoshlar ertalab uyidan, ota yoki onasidan tushlik uchun olgan pulni kompyuterxonalarda har xil o'yinlarga sarflashadi. Nimqorong'i xonalarda, sheriklarning baqir-chaqirlarida turli kompyuter o'yinlari avjiga chiqadi. Bu bolalarning maqsadi - biri ikkinchisining ustidan g'olib bo'lish. Bola uchun esa taqiqlangan narsalar behad qiziq. Jangari o'yinlarga qiziqqan bola vaqti behuda o'tayotganini, eng asosiysi, sog'lig'iga zarar yetayotganini ham sezmaydi. Yana bunday o'yinlar bolani tajovuzkor qilib qo'yadi. Maqoladan ana shunday xulosa kelib chiqadi.

"Dehqoni so'z" maqolasi ko'tarinki ruhda yozilgan, qishloq manzaralari, qishloq odamlari tasviriga keng o'rin berilgan. "Farhod" fermer xo'jaligi rahbari Muxtor Nurmuhammedovni mahalla ahli yaxshi taniydi. U astoydil mehnat qilib, har yili rejalarni ortig'i bilan bajarib, hayotda katta yutuqlarga erishgan. U qishloqda maktabga ham homiylik qiladi. Maqola muallifi xalqimizning "Yer- ga mehr - elga mehr" degan hikmatining mohiyatini voqealar rivojida ochib berishga intilgan.

Har bir bola yoshligidan ertaklar eshitib ulg'ayadi. Ertaklar yoshlarni Vatanga mehr qo'yishga, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishga o'rgatadi. "Bir bor ekan, bir yo'q ekan..." degan so'zlar bilan boshlangan ertaklar ezgulikka xizmat qiladi. Bolajonlarning ertaklar mo'jizasini anglashida bobobu- vilarning, ota-onalarning hissasi katta. Ular adashganni to'g'ri yo'lga undashda, albat- ta, ertaklardan misollar keltirishadi. "Ertak so'zlab berardi buvim..." maqolasi bolalarni yomonlikdan uzoqlashtirib, yaxshilikka ya- qinlashtirishda beminnat xizmat qiluvchi ertaklar haqida. Dilshod Ro'ziqulov ushbu mavzuni keng qamrab olishga uringan.

Garchi yaxshi mavzu qalamga olingan "Yangi yil - kitoblar olamida" singari ayrim maqolalarda masalaning ijtimoiy ahamiyati- ni tahlil etish, ko'laml xulosalar chiqarishda muallifning tajribasizligi ko'zga tashlansa-da, "Dehqoni so'z" kitobida yosh qalamkashning tanlangan mavzuga ijodkorona yondashuvi aks etgan. Maqolalarning mavzusi, yo'nalishi rang-barang.

Publitsistikaning asosiy mezoni hayot ha- qiqati va voqea-hodisalarni xolisona tahlil qi- lish va muhim ijtimoiy xulosalar chiqarishdan iboratdir. Bu yo'lda Dilshodga omadlar tilay- miz.

Salim ASHUR,
*O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
jurnalist.*

“MONITOR BOLA”

O'smirlar ikkinchi dars soatidan keyin juftakni roslab, internet kafega oshiqdilar. Ikki guruhga bo'lingan “supermen”larning maqsadi: o'yinda hamma joyni portlatib tashlashga qodir “kuchlari” tengsiz ekanini ko'rsatib qo'yish, bir-biriga o'q uzib, “chempion”lik maqomiga erishish. Ikki soat uchun pul to'lagan o'quvchilar stulga qulayroq o'tirib olishdi. Monitor nurini hisobga olmasa, xona ichi zim-zimiston! Nigohlar ekranga qadaldi. Kriminal olam! Yurish-turish alomat! Raqibni yutish fikri har qaysi bola xayolini band etgan. Garchand jangari qahramonning so'zlariga mutlaqo tushunmasa ham olg'a harakat qilish kerak!

Yengilgan guruh raqiblarini g'irromlikda ayblagach, o'yin bir necha chaqirim naridagi boshqa internet kafeda davom ettirildi. Alama halgacha cho'zilgan o'yindan “o't” chiqardi: hisob endi mag'lub guruh foydasiga hal bo'lgach, ziddiyat yanada qaltis tus oldi. Dahanaki jangda o'yindagi usullar “qo'l” keltirib boshladi. Olishuv, ustma-ust zarba, baqir-chaqir...

Maslagindan chalg'imagin, bolajon!

Bola uchun taqiqlangan ish qiziq. U o'sha olamga maftun, o'yinning ohanrabosi o'ziga tortgani-tortgan. Oldi-qochdi o'yin tufayli vaqtini behuda sarflayotgan bola o'z sog'lig'iga putur yetkazayotganini sezmaydi. Nafaqat ruhiy, balki moddiy zarar ham uni tashvishlantirmaydi.

— O'quvchilarimdan biri juda odamovi, darsda bezovta bo'layotganini sezib qoldim, — deydi Ohangaron tumanidagi 1-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulniso G'afurova. — Ota-onasi bilan suhbatlashsam, keyingi paytlarda u maktabga erta ketib, kech qaytayotgan ekan. Sababi ayon — bola kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketgan.

Kompyuterning ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida so'rovnoma o'tkazishga qaror qildim. O'sha o'quvchim kompyuterni umuman qoralamagan. Salbiy jihatlarga “Ma'qul” belgisini qo'yib ketavergan. “Fikringizni qanday misollar bilan isbotlay olasiz?” degan savolga u sevib o'ynaydigan jangari o'yinlari nomi va mazmunini bayon qilgan. So'rovnomadan so'ng “Maqsadingdan chalg'imagin, bolajon” nomli videorolik namoyish etdim, keyin shunga mos ibratli ertak aytib berdim.

Ikkinchi ertakning davomi va xulosasini o'quvchilarim hukmiga qoldirdim. Topshiriq bajarilishini nazorat qilish ota-onalar zimmasiga yuklandi. Ota-onasi bolaning maktabga kelib-ketishini surishtirib turdi. Men esa uning o'zi bilan yakkama-yakka suhbatlashib, kompyuter o'yinlarining zarari xususida tez-tez suhbatlashdim. Shu tariqa o'quvchini virtual olam "botqog'i" dan olib chiqdik.

Boshlang'ich sinfda bola xuddi nozikkina niholga o'xshaydi! Uni kompyuter qarshisida soatlab o'tirishdan asrasak, g'oyaviy tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantirgan bo'lamiz. Bola bu yoshda ishonuvchan, irodasi sust, beqaror bo'ladi. Jangari o'yinlar uni o'ziga rom etib, befarq, qo'pol, tajovuzkor qilib qo'yayotganligi muhtaram pedagoglarimizni tashvishlantirib, ota-onalar bilan bamaslahat ish tutsalar, Gulniso G'afurova kabi ijobiy natijaga erishishlari mumkin.

Xayolning xatarli hududi

Musobaqalashuv kombinatsiyalari-yu jangari kurashlar asosiga qurilgan kompyuter o'yinlari bola xayolotiga mosligi bilan uni o'ziga tortadi. Garchand bola kompyuter qarshisida yolg'iz o'tirsa ham, uning tafakkurida

faqat faol amaliy harakat va muayyan obraz (o'yindagi o'zim, deb tanlagan, tan olgan "qahramon" va uning g'animlari) to'qnashuvi ustida ommaviy g'alayon kechadi. Xo'sh, bu holatning o'smir ruhiyatiga psixik ta'siri qanday?

- Inson faoliyatining barcha turlari - o'qish, mehnat, ijodiy mashg'ulot va hatto o'yinda ham xayol muayyan darajada rol o'ynaydi, - deydi psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Xadicha Sharafiddinova. - Maktab yoshidagi bolaning amaliy, ko'rgazmali-hisсий kechinmalari asosida shaklan mavhum tushunchalarning rivojlanishi kuchli bo'lib, uzoq-uzoqlarga parvoz qila oladi. Xayol kuchi hissiyotga ham bog'liq. Bola qanchalik ehtirosli bo'lsa, xayol uflari ham shunchalik yorqin va keng quloqch yoyadi. Masalan, bola kasal bo'lsa, xayoliy obrazlar jadal va kuchliroq ishlab, unda gallyutsinatsiya (lot. hallucinatio - xomxayol, bema'ni) hodisasi, ya'ni yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etish holati yuz beradi. Kompyuter o'yinlari ishqibozi fe'l-atvorida xuddi shunday belgilar kuzatiladi.

Xayol shakliga ko'ra, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turga bo'linadi. Ixtiyoriy xayolda oldinga qo'yilgan maqsadni zabt etish orzu qilinib,

ataylab obraz yaratiladi. Bu ko'proq yozuvchining asar yaratishiga o'xshaydi.

Ixtiyorsiz xayol maqsadsiz holat bo'lib, unda iroda faol ishtirok etmaydi, obrazlar o'z-o'zidan paydo bo'laveradi. U avvalo, o'sha lahzada qondirilmagan ehtiyoj hosilasi sanaladi. Agar kishi cho'l-u biyobonda ketayotib juda chanqasa, uning ko'z oldiga dam-badam vodoprovod, buloq yoki ariq suvi kelaveradi. Tashna odam bir kosa suv haqida o'ylamasa ham, uni shu manzara tark etmaydi. Kompyuterdagi jangari hujum g'olibligiga intilayotgan o'smir o'z-o'zidan ixtiyorsiz xayolning "quli"ga aylanib qoladi.

Mutaxassis ogoh etadi

Bolani monitor xavf-xataridan asramasak, uning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashigina emas, balki sog'lig'ida ham jiddiy muammolar kelib chiqishi aniq. Angor tumanidagi Agrosanoat kasb-hunar kollejining amaliyotchi psixologi Jumagul Xudoyberdiyeva "monitorbo-la"da kuzatiladigan asosiy maqsadni shunday izohlaydi:

- Ayrim bolalar boy bo'lib qolish uchun katta xazina topib olish yoki to'satdan katta merosga ega bo'lish xayoli bilan yashaydi. Bu

bolada tug'ilayotgan moddiy ehtiyojlar yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Xayolan dunyo bo'ylab sayohat qilishga berilgan bola ko'pincha dunyoning o'tkinchiligi haqida o'ylaydi. Virtual maydonda kezayotgan o'smir cheki-chegarasi yo'qdek bu olamni aylanib chiqish istagiga juda moyildir. U "ko'rinmas kishi bo'lib qolish"ni istaydiganlar toifasiga mansub. "Qahramonlik ko'rsatish" maqsadi uni o'ziga rom etadi. O'yin ta'siridan chiqqa olmayotgan, kompyuter imkoniyatlarini ishga solgan o'smir (bu noreal ekanini anglamay turib), har lahzada qahramonlik ko'rsatish istagi bilan yashaydi.

Inson xayoli qanchalik faol bo'lsa, bu unda axborot zaxirasi mo'lligidan dalolat beradi. Passiv xayol esa buning aksi bo'lib, u insonning hayot qiyinchiliklari va muammolar yechimidan qochib, fantaziya olamiga in qurishi bilan tavsiflanadi. Bu tip egalari shirin xayol og'ushidan chiqib keta olmaydilar. Bola individ sifatida shakllanib borsa ham, unda faollik, tashabbus ko'rsatish sifatlari rivojlanmay qolaveradi. Psixologlar bolalikni eng ko'p xayol suriladigan davr, deb hisoblaydi. Xayol bola shaxsida normal rol o'ynashi uchun o'zbek xalq ertaklari mutolaasini yanada jonlanti-

rishimiz zarur. Sinf rahbarlari, ota-onalar bolani kompyuterning jangari o'yinlaridan xalos etishda ertak va rivoyatlarni birgalikda mutolaa qilishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mushtarak muddao muammoga malham

Fan-texnika taraqqiy etgan zamonda yashayapmiz. Imkoniyatlarimiz kengaymoqda. Farzandlarimizning ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirishi va hayotda qo'llashi quvonarli. Biroq ekran qarshisiga "mixlangan" bolaning kompyuter o'yinlari ta'sirida qo'pol, jizzaki, xayolparast bo'lib qolishi keng jamoatchilikni xavotirga solmoqda. Agar maktab o'z zimmasidagi vazifasini to'liq uddalamayotgan bo'lsa, o'quvchi o'zini internet kafega uradi, monitor uning uchun asosiy mashg'ulotga aylanadi. Xo'sh, nima qilish kerak?

Do'stlik tumanidagi 6-umumta'lim maktabida bu borada o'ziga xos tizim yo'lga qo'yilgan. 560 nafardan ziyod o'quvchi ta'lim-tarbiya olayotgan ta'lim muassasasi direktori G'ayrat Yahyoyev, uning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Shavkat To'raqulov, amaliyotchi psixolog Berdiyoz Yorbo'yev, "Navro'z" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Um

mat To'ychiyev, mahalla posboni Noryigit Avvalboyev bilan birgalikda hududdagi internet kafelari xizmatining o'quvchilar yoshi va psixologiyasiga qay darajada mosligini o'rganib chiqishdi. Reydda aniqlanishicha, "O'quvchi diqqatiga" (uyga vazifa va topshiriqlarni bajarish, ko'zlangan maqsaddan chalg'imaslik uchun foydali veb-manzil, internet resurslari ilovasi kabi eslatma qoidalar) varaqasi tuzilib, xonaning foydalanuvchi uchun ko'rinarli joyiga ilib qo'yildi.

- Ko'pgina illatlarning boshi - bekorchilik, - deydi maktab direktori G'ayrat Yahyoyev.
- Maktab yoshida kompyuterga bog'lanib qolgan bolakayning darsda yoki oila davrasida uyqu oldidan aytiladigan ertaklarga ishonishi qiyin kechadi. Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi Ulug'bek Tojimumurodov, informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi Hamroxon Abdurahimov muassasamizga yaqin internet kafega birlashtirilgan bo'lib, o'quvchining foydali o'quv mashg'uloti bilan shug'ullanishini kuzatib, nazorat qilib boradilar. Ba'zan savodxonlik va mahorat darslarini tashkil qilib, bolani virtual olamning balolaridan asrashmoqda. Bundan internet kafe egalari

ham, ota-onalar ham mamnun. Og'riqli nuqtaga aylangan illat – jangari o'yinlar og'ushidan o'quvchilarni shu tarzda himoya qilyapmiz.

Virtual olamda faol, hayotda esa sust, beparvo bolaning bilib-bilmay mudhish, qing'ir ko'chaga kirib qolishining oldini olish nainki ota-ona, balki keng jamoatchilikning mushtarak muddaosiga aylanmog'i zarur. Do'stlik tumanidagi 6-umumta'lim maktabi rahbariyati qo'llayotgan tajriba barcha ta'lim maskanlari hukmiga havoladir.



ERTAK SO'YLAB BERARDI BUVIM...

To'qsonni qoralagan, turmushning og'ir-yengilini boshdan o'tkazgan oqila buvim Bol-buvi Isiomovani qo'shni yanga chaqirib qoldi. Salom-alikdan so'ng bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlaydigan yoshgina ayolning yo'qlov-dan murodi oydinlashdi:

– Bola deganini uxlatolmay halakman, mo-mo. Aldagani bola yaxshi deyishardi, qayoq-da, sho'x, mahmadona bolalarni aldab-suldab ham uxlatolmaysiz. Ammo ertak aytсам, kip-rik qoqmay uxlab qolishadi. Ertaga yana ish kuni. Ertaklaringizdan bir shingil olib ketsam, deb kiruvdim.

Do'stlik tumanidagi Navro'z qishlog'ida hamma "Ertakchi momo" deydigan buvim bog'cha tarbiyachisining gaplariga qat'iy e'tiroz bildiradi:

– Aldagani bola yaxshi – ilgari zamon-ning naqli. Bugungi bolani aldab bo'lmaydi. Unga rost so'zni aytgim, kelinposhsha. Bolalar ertakni yaxshi ko'rishini o'zingizam bilasiz. Shunga qarab ish tuting, bolam.

Hunari bor xor bo'lmas

"Ertagi-yo ertagi, echkilarning bo'rtagi. Qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan. Ko'k muzga mingan ekan, muruti singan ekan. Ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chum-chuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan. Ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor. Tovug'im "toq" etdi, bilmadim, qayga ketdi..."

Buvim aytgan ertaklar, odatda, shunday boshlanardi. Ajoyib-u g'aroyib, qiziqarli va o'zgacha. Ularning yakuni esa doim yaxshilik bilan tugallanar, qahramonlar o'z murod-maqсадiga yetardi.

Tashqarida qosh qoraygach, buvim maxsus boshlamalaridan so'ng yangi ertagini aytib beradi. Buvim ertakni juda sodda, ravon, tushunarli aytadi. Men esa bu ertakni o'z tilimda aytib beraman. Tavba, buvim bilan tilimiz bir xil, lekin hammaning o'z tili ham bo'lar ekan-da-a, aytib beraman shu ertakni, negaki u sizga ham kerak bo'ladi.

"Qadim o'tgan zamonda, borsa-kelmas tomonda bir chol yashagan ekan. Uning uch yuz tillo tangasi qolgan ekan. Mo'ysafid savdojarlik sirlarini o'rgatish niyatida yakka-yu yolg'izlik o'g'li Alijonga yuz tillo berib, karvonga qo'shib

jo'natildi va bu pulni aqll bilan ishlatishini tayinlabdi.

Alijon aqli yigit ekan, biror hunar egasi bo'lib, o'z mehnati bilan kun ko'rishni istar, ammo savdogarlikni xush ko'rmas ekan.

Otasining ra'yini qaytarolmay, pulni olib karvon bilan yetti kun deganda katta bir shaharga yetib boribdi. Biroz dam olgach, shahar aylanibdi, yurib-yurib shomda bir bog'ga yaqinlashibdi. Yop-yorug' bog'ning sathiga marmar yotqizilgan, naqshinkor ustunli ayvonga gilam to'shalgan ekan. Gilam ustiga oltin va kumushdan ishlangan pastakkina xontaxta qo'yilgan emish. Dur va yoqut bilan bezatilgan xontaxta atrofida juft-juft bo'lib, ozoda kiyingan yigitchalar o'tirgan ekan. Donachalarni u yoqdan-bu yoqqa surayotgan bolalarni zavq bilan tomosha qilib turgan Alijon xizmatchidan ular nima qilayotganini so'rabdi. Bolakaylarning shohmot o'ynayotganini eshitib: "Men ham o'rganishni xohlayman", - debdi hayajonini yashirolmay. Haligi kishi o'rganish uchun yuz tillo to'lashi kerakligini aytibdi. U otasidan olgan yuz tilloni berib, o'yinni puxta o'rgangach, yana karvonga qo'shib uyiga qaytibdi. Bilib turganidek, quruq kelibdi.

Bir yildan so'ng ota o'g'liga yana yuz tillo tan-
ga berib, pullarni behuda sarf qilmaslik haqida
uzundan-uzoq nasihat qilib, karvonga qo'shib
jo'natibdi. Alijon shahar aylangani chiqib, yana
o'sha bog' tomonga borib qolibdi. Bu safar
bog'dagi bolalar har xil cholg'ularni chalish-
ni o'rganishar edi. Alijon ham yuz tillo berib-
di. Kuy chalishni o'rganib, bir yil ichida ajoyib
mashshoq bo'libdi. Uyga yana quruq qo'l bilan
qaytgandan otasining andak jahli chiqibdi.

Oradan bir yil o'tibdi, ota o'g'lini chaqirib:
"Bu - oxirgi pulim. Agar ularni yana avvalgiday
bekorga ishlatib yuborsang, quppa-quruq qo-
lamiz, hatto yeguligimiz ham qolmaydi", - deb
tayinlabdi. Shaharga savdogarlar bilan mol olish
niyatida kelgan Alijon bozorga ketayotib, bog'ni
ko'rib kelay-chi, deb bir necha bola o'tirgan o'sha
ayvon yoniga boribdi. Ular ustozning aytganlarini
ni qunt bilan eshitib, nimalarnidir yozishayot-
gan ekan. Alijon ko'ngli buyurgan ishni qilib,
qo'lidagi oxirgi yuz tilloni berib, o'qish-yozishni
a'lo darajada o'rganib olibdi".

Buvim ertak aytadi, mehnat, harakat, ibrat
mashaqqat va ro'shnolikdan so'zlaydi. Ertak
menga yod bo'lib ketgan. Davomini ayta qolay

"Karvon qaytayotganda meshkoblarini buy-
ga to'ldirib olish uchun yo'ldagi quduqlar tash-

gan Alijon bir eshikni ko'rib qolibdi. Ichkariga
mo'ralasa, yop-yorug', katta uyning o'rtasida
bir dev ma'yus, qo'lida g'ijjak bilan o'tirgan
ekan. Qo'rqib o'tirmay, g'ijjakda kuy chalsa,
dev ko'zini ochib yengilgina uh tortibdi: "Se-
ning kuying meni o'limdan saqlab qoldi. Besh
kundan buyon og'ir judolikni ko'tarolmay,
o'limimga rozi bo'lib o'tirgan edim. O'zim-
ni chalg'itish uchun g'ijjak sotib olgan edim,
chalolmadim. Agar biroz kechikkaningda,
halok bo'lardim. Tila, tilagingni", - debdi dev.
Alijon esa hech narsa kerakmasligini, faqat
quduqdan chiqishga yordam berishini so'rab-
di. U ko'zini bir yumib ochsa, bir qopcha tillo
bilan tepada paydo bo'libdi. U izma-iz kar-
vonga yetib olib, bosh savdogarga bo'lgan vo-
qealarni aytib beribdi. Tillolarni ko'rgan sav-
dogar go'zal qizini Alijonga bermoqchiligini,
tezda borib to'yga taraddud ko'rishini ma'lum
qilibdi, darrov xotiniga xat yozib, maktubni el-
tib berishni Alijonga buyuribdi.

Uzoq yo'l yurib charchagan Alijon qiziqib
katni o'qibdi. Maktubda savdogar xotiniga cho-
parni yaxshi kutib olishini, tillolarni olib, uni
vaqtincha yerto'lada saqlashni buyurgan ekan.
Alijon xatni yirtib tashlab, boshqacha yozibdi:
"Onasi, yuborgan mehmonimni izzat-ikrom bi-

Buvim ertak xotimasiga kelganida, chuqur xo'rsinib qo'yardi. Men esa entikaman. Mening fikr-u yodimni hunarmand yigitning kechinmalari chulg'ab oladi. Sizni zeriktirmadimmi?

Ertak uydirma emas

Ertakning xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni, farzand tarbiyasidagi ahamiyatini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulov shunday sharhlaydi:

– Gap folklor haqida ketar ekan, uni ertaklarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ehtimol, umrida doston eshitmagan, o'qimagan odam bo'lsa bordir, biroq ertak tinglab, o'qimagan kishi bo'lmasa kerak. Ertak folklorida hajman, mazmunan salmoqli o'rin tutadi.

Eng ko'p chop etiladigan va ko'p o'qiladigan xalq og'zaki ijodi namunalari ertak kitoblardir. Mutaxassislar ertakni uch yo'nalishga bo'lib o'rganadilar: hayvonot olami bilan bog'liq, maishiy va sehrli ertaklar. Biroq ularning barchasida biz sehrni, mo'jizani ko'ramiz. Aql bovar qilmas g'ayritabiiy voqealar yaxshilik bilan tugashiga, hayotda albatta ezgulik

lan kutib ol. Unga qizimizni ber. Meni kutmay, to'yni o'tkazaver". Hammasi xatda yozilganidek bo'libdi. Uchinchi kuni esa Alijon yo'lga otlanib, "Savdo ishlari bilan ketyapman, kechasi darvozani hech kimga ochmang, devordan oshgan odamni o'lasi qilib do'pposlang", – deb tayinlabdi xizmatkorlarga.

Kechasi savdogar uyiga kelib darvozani taqillatsa, hech kim ochmabdi. Devordan oshib tushsa, uni rosa kaltaklashibdi. O'ziga kelgach, zo'rg'a uyiga kirib, xotinidan voqea tafsilotini so'rabdi. Savdogar aldanganini tushunibdi. Qilgan xatosidan uyalib, taqdirga tan berishdan boshqa iloji qolmabdi. Shu vaqtning o'zida Alijon bir shaharga kelib, jarchidan agar kimda-kim shohmot o'yinida shohni ketma-ket uch marta yutsa, podsho taxtini sovg'a qilishini, yutqazganning esa boshini ketishini eshitib, saroyga boribdi. U shohmotni yaxshi biladigan befarzand shohni uch marta yenggach, taxtni yana o'z egasiga qoldirib, sovg'a-salom bilan otasining yoniga qaytib va bo'lgan voqealarni birma-bir so'zlab beribdi. Ota jigarbandining hunar o'rganganini uchun tahlikali vaziyatlardan qutulib qolganini bergan pullari yaxshilikka xizmat qilganidan quvonibdi".

tantana qilishiga ishonamiz. Lotin Amerikasi adiblaridan biri Borxesning "Adabiyot mifdan boshlanib, mif bilan tugaydi" degan so'zlari biroz mubolag'ali bo'lib tuyulishi mumkin. Biroq bolalik tasavvurimizga ertak qanchalik kuch va qanot berganini eslasak, adib fikrining haqqoniyligiga amin bo'lamiz.

Tasavvur qiling, bugun G'arbda urf bo'lgan qaysidir multfilm yoki kino qahramonining jonini asrab qolish uchun minglab odamlarning hayoti qurbon bo'ladi. Bizning ertak yoki doston qahramonlarimiz esa minglab, yuz minglab odamlarning hayoti uchun kurashadi, ularni baxtli qiladi. Shu ma'noda inson omili, ezgulik va yovuzlikka munosabat, ertangi kunga ishonch jihatidan milliy ertaklarimiz farqlanib turadi. Men ularning tarbiyaviy ahamiyatini shunda ko'raman.

Bobo-momolarning hissasi katta

Buvim bilib-bilmay qilgan xatolarimizni tushuntirishga urinar ekan, ko'proq maqol, ertak va rivoyatlarga tayanardi. O'ylab ko'rsam, bunda hikmat ko'p ekan. "Zumrad va Qimmat", "Kenja botir", "Uch og'a-ini botirlar", "Ur, to'qmoq!" kabi ertak hamda "Alpomish", "Erali va Sherar", "Go'ro'g'li" singari xalq dostonlari bizni yaxshi

likka boshlab, yomonlikdan qaytaradi. Buvim aytgan va shuurimda umrbod saqlanib qolgan ertaklar hayotimga mazmun bag'ishlaydi. El mehri qozongan nuroniyning hayot saboqlari, kasb-kori-yu, ilm-u amallari yosh-yalanglar uchun o'ziga xos ibrat maktabi bo'lar ekan. O'zbek xalq ertaklarining barchasi bobo-momolarimiz og'zidan yozib olingan.

Shu paytgacha to'plangan ertak namunalarning aksariyati ertakchi onaxon-u otaxonlardan yig'ilgan. Uch jildlik "O'zbek xalq ertaklari" ("Tamaddun" nashriyoti, 2012-yil) kitobiga kirgan ertak namunalari sodda, samimiy, bola ruhiyatiga mos. Ertaklarda variantlilik degan gap bor. Bu bir ertakni boshqa bir kishi aytib bersa, matn qaysidir darajada o'zgaradi deganidir. Biroq bunda an'anaviylik saqlanib qoladi. Agar ertakchi an'ana doirasidan chiqsa yoxud uni atay buzsa, o'sha ertakning ahamiyati yo'qoladi. Shuning uchun yozib olish jarayonida bu jihatlarni, albatta, inobatga olinadi, - deydi Jabbor Eshonqulov. - Bir necha yil oldin kekxa ertakchilarimizdan yozib olingan "Odamtoy" nomli to'plamni nashrga tayyorladik. "Akadem-nashr" tomonidan chop etilayotgan bu kitob sotuvga chiqarildi. Unda ilgari chop etilma-

gan yangi ertaklar jamlangan. "Tuxum bilan buyrak" ertagi shu paytga qadar biror kitobga kiritilmagan. Uni ilk bor yuz yoshli momom Masil Pirimqul qizidan eshitib, farzandlarimga ham aytib berardim.

Buyrakni uchratib qolgan ulkan tuxum garchi do'sti bo'lsa-da, uni paqqos tushirardi. Yo'lida uchragan qarg'a, echki, toy, kash-ta tikayotgan qizlar, chillak o'ynayotgan yigitlarni yutib yuborgan tuxum bir kampirning yoniga borib qoladi. Kampir unga ovqat pishirguncha dam olishini buyuradi, tuxum uyquga ketgach, qizib turgan kapgirni bosganda, uning ichidagi buyrak, qarg'a, echki, toy, o'g'il va qiz bolalar chiqib keladi.

Bir qarashda ertak juda oddiy, yosh bolalarga mo'ljallangan. Biroq bu kattalarni ham o'ylatib qo'yadigan jumboqli ertak. Bu ertak aslida xaosning kosmosga aylanishi, olamning yaralishini bizga ramziy tilda hikoya qilmoqda.

Estetik va etnografik qadriyat

Yoshi ulug' kishilar tilidan yozib olingan ertakni ilmiy va badiiy nuqtayi nazardan sayqal toptirib, kitob holiga keltirishda nimalarga ahamiyat qaratiladi? Suhbatdoshimiz bu savolga shunday javob beradi:

—Oddiy, sodda bo'lib ko'ringan xalq og'zaki ijodi namunalarini nashrga tayyorlash, chop etish anchayin murakkab jarayon. Doston, ertak, qo'shiq, maqol yoki metal mutaxassisdan sinchkovlikni talab qiladi. Mutaxassis kuylovchi yoxud aytuvchidan yozib olingan namunaning variantlarini o'zaro solishtirib, eng nodir, badiiy jihatdan yuksak bittasini tanlab olib, nashrga tayyorlaydi. "Cho'loq bo'ri", "Kenja botir" kabi ertaklar shular jumlasidan-dir. Eng mukammal varianti tanlab olingani uchun ham ular avloddan avlodga o'tib keladi.

Ertakdagi har bir jumla, so'z va hatto kichik bir detalni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur. Zero, bittagina so'zni o'zgartirish bilan, ustoz folklorshunoslar aytganidek, xalqning ma'lum guruhiga xos estetik tushuncha yoki muhim bir etnografik detalni yo'qotib yuborish mumkin. Qolaversa, ertak har nashrda tahrir va o'zgarishga uchrab bora-versa, uning mazmuni va uslubi o'zgaradi. Kitob xarid qilayotganda uning kim tomonidan nashrga tayyorlanganiga ham e'tibor qaratish foydadan xoli emas.

Bugun poligrafik imkoniyatlar juda keng. Shunday ekan, ertak kitoblarni chop etishda uning hajmi, ishlangan rasmlari, bo'yoq sifati,

bezagi, matn o'lchami, ko'rinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nashrga tayyorlash jarayonida kitob qaysi yoshdagi kitobxonga mo'ljallangani inobatga olinadi. Jajji kitobxonlarga rasmi, bezakli ertak kitoblar taqdim etamiz. Katta yoshdagi o'smir bolalarga esa, odatda, sehrli, fantastik ertaklarni saralaymiz. Biroq qaysi yoshdagi kitobxonga mo'ljallangan bo'lmasin, matn asl holicha qolib, zarur o'rinlarda har bir so'zga izoh beriladi.

Nega, ertakni o'zim so'zlab berganim yetmagandek, boshqa mavzuga o'tib ketdim? Ha, har qanday asarning mazmuniga putur yetkazmay turib, uni davrga va kitobxonga moslashtirish mumkin va hatto shart ham. Ayniqsa, folklor asarlari mohiyatini saqlagan holda uni talabgorlariga yetkazish ishini faqat kitob fidoyilari uddalashi mumkin.

Darhaqiqat, bolalikda ertag-u hikoyatlar olami har bir insonni o'ziga chorlaydi. Gohida qissadan hissa qismiga yetolmay, ko'zimiz ilingani ham rost. Biroq ertak qahramonlari bilan birga "yashab", ezgulik tantanasi uchun yovuzlikni yengish shu qadar maroqliki, buning zavqiga teng keladigan holatning o'zi yo'q.

DEHQONI SO'Z

Qishloqda tong erta otadi. Dov-daraxt, o't-o'lan dona-dona shudringga chayinadi. Shudring parlanar chog'i tandirda onamning patir noni pishadi. Sahardagi shudring jilosi-yu issiq nonning xush bo'yi bahri dilni ochadi. Azaliy odat bor: tandirdan non uzilsa, qo'ni-qo'shni bolalari uchun kulcha uzatiladi. Bolalikda biz ham-hamsoya kulchasini ko'p yeganmiz. Yoshlik yillari urush paytiga to'g'ri kelgan katta enamning shukronalik so'zi bor, duosi bor: "Uying bug'doyga to'lsini!"

Muvaffaqiyat formulasi

Oftob nuri etni qizdirguncha, dehqonlar o'z ishini yarimlatadi. Kuz yaqin. Issiq kunlardan unumli foydalanib, muhim agrotexnik tadbirlarga ulgurish kerak. Vaqt g'animat. G'alladan bo'shagan yerni haydab, ekinga tayyorlash zarur. G'o'za parvarishi alohida e'tibor talab qiladi... Qishloq hayoti odamlarni qishning g'amini yozda yeyishga o'rgatgan.

Yetti mahalla bir-biriga qavm-u qarindosh, bir-biriga begonasi yo'q. Muxtor Nurmuhammedovni Do'stlik tumanidagi "Farhod"

fermer xo'jaligi rahbari sifatida ko'pchilik yaxshi biladi. Bu yil umumiy 102,6 gektar yer maydonining 40,5 gektariga "AN-Boyovut - 2" bug'doy navini ekib, 237 tonna xirmon ko'tarildi. G'alla yetishtirish bo'yicha shartnoma majburiyati 165 foizga bajarildi. O'rtacha hosildorlik gektariga 40 sentnerni tashkil etdi.

Ham hashar, ham diydor vajidan ikki ko'cha narida yashaydigan Muxtor akani yo'qladim. O'dob boshi - salom bilan ostona hatladim. "Vaalaykum assalom" deya xonadon ulug'lari alik olishdi. Asriy odat bor: nuroniy bobo-momolar yoshlarni ota-onasining ismi bilan taniydi. Mehmon har qancha oshiqib turgan bo'lsa-da, dasturxonda ushatilgan nondan totmasdan ketmaydi. Bu - mezbonga hurmat ifodasi. Avvalgi ko'rinishi sezilarli darajada o'zgargan hashamatli hovli e'tiborimni tortdi.

Atrofga razm soldim. Hammayoq saranjom-sarishta. Gul-u rayhon hidi dimoqqa uriladi. Hovli chetidagi avtomashina uchun ikkita turarjoyini ko'rib, havasim ortdi. Bittasida "Matiz" turibdi. Xonadonning kenjalari darsxonasida kompyuterda nimalarnidir o'qib-o'rganishmoqda. Yangalar ham bekor yurgani yo'q. Xullas, hamma foydali ish bilan mashg'ul.

Yuk mashinalari hovliga kirib, ulkan xirmon hosil qildi. Ne baxtki, uy bug'doyga to'ldi. Ana mo'jiza-yu, mana mo'jiza!

"Neksiya" avtomashinasidan Muxtor aka tushib keldi.

- Xirmonga baraka, - deya ko'rishdim.

- Umringizga baraka, - dedi yuzidan nur balqigan fermer hamqishlog'im.

Sen yerni boqsang, yer seni boqadi, deganlari shu bo'lsa kerak. Kechagina dalada "Xush kelibsiz!" degandek egilib turgan bug'doy bo'shoqlaridan yaralgan ulkan xirmon sururidan Muxtor aka dildagilarni so'zladi:

- Dalaning nozik ishi ko'p, har tup ko'chat ustida parvona bo'lamiz, - deydi dehqon. - Bu yil "Belarus - 82,1" traktorini sotib olib, chigit ekiladigan yerni barvaqt hozirladik. Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'ladi, degan gap rost ekan.

Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida yanada puxta bajaryapmiz, yerning meliorativ holatini yaxshilanyapmi. Natijada hosilimiz har yildan mo'l. Esimda, mustaqillikning dastlabki yillari bug'doy, oziq-ovqat ancha tortilib qolgan. O'sha vaqtlar fermer xo'jaligimiz uchun zarur mineral o'g'itlar, texnika va suv taqchilligi sezilib, yana har qadamda kimlargadir

yalinib-yolvorishdek muammoli vaziyatlarga duch kelardik. Ishchilarga haq to'lay olmay xijolat bo'lardik. Ustiga-ustak, kun-u tun qo'l mehnati talab qilinardi. Davlatimiz rahbari rahnamoligida qishloq xo'jaligi tarmog'i tubdan isloh qilinib, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratildi. Hozir ham talaygina imtiyozlar joriy qilinib, ilg'or innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha aniq maqsadli chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Eng muhimi, dehqon o'zini yerning, mulkning haqiqiy egasi deya his qilib, mehnatidan har tomonlama manfaatdorlik tuyg'usi ortmoqda. Bu yilgi mavsumda shartnoma majburiyatini ortig'i bilan ado etganimiz uchun mukofot sifatida "Neksiya" avtomobiliga ega bo'ldik.

Muxtor aka erishgan muvaffaqiyatlarini istiqbol imkoniyatlari bilan bog'laydi. U o'zining muvaffaqiyat formulasi – yaxshi niyat, halol mehnat va ildam harakatiga yarasha paxtadan ham yaxshi hosil kutmoqda. 62 gektar yerda g'o'za parvarishlayotgan fermerning niyati katta. Bog'dorchilik borasida ham rejalari bisyor, intensiv bog' yaratish orzusiga tinchlik bermaydi. Kuch-g'ayrat va ishtiyoq baland fermerning ishiga baraka! Uning yutug'idan mening ham ko'kayim ko'tarildi.

Yerga mehr – elga mehr

Muxtor aka "Navro'z" qishloq fuqarolar yig'ini raisi Abdurashid Aliboyev, raisning xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Zilola Yusupova va boshqa faollar bilan kengashgan holda xayrli tashabbus ko'rsatdi. Ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat masalasida yordam qo'lini cho'zdi.

Katta enamning og'zidan tushmaydigan "Yerga mehr – elga mehr", "Yerga boqsang, ol-tin bo'ladi, elga boqsang, baxting kuladi" degan maqollar nechog'lik haqiqat ekaniga amin bo'ldim. Ayni paytda fermer xo'jaligida javlon urib mehnat qilayotgan 14 xodimning to'rt nafari Do'stlik iqtisodiyot kasb-hunar kolleji bitiruvchisi. Do'stlik, Forish tumanlari iqtisodiyot hamda qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejlari o'quvchilari fermer xo'jaligida o'zlariga birlashtirilgan malakali ustozlar rahbarligida ishlab chiqarish amaliyotini o'tashmoqda.

Fermer o'zi ta'lim-tarbiya olgan 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi bilan hamkorlikni uzviy yo'lga qo'ygan. Maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Qobil Usmonovning ta'kidlashicha, qahramonimiz maktab hisobiga homiylik mablag'i o'tkazib, o'quvchilarga badi-

YANGI YIL – KITOBLAR OLAMIDA

Dekabr oyi kelishi bilan bolalik paytlarimizda Yangi yil bayrami haqida eshitgan, o'quvchilik yillarimizda o'qigan ertaknamo hikoyalari yodimga tushadi. "Qor malikasi", "Ayoz bobo va kulrang bo'ri", "Qor odam" va hokazolar. Ularni hozir ham mutolaa qilsam, yana yangi hikmat topishimga ishonaman.

Bolalikda onam bizni bag'riga olib, berim muqovali kitobdan "Uyquchi qishga jazo" ertagini mehr bilan so'zlab bergani xuddi kechagidek yodimda. Hanuz Yangi yil mo'jizalariga, hatto qorbobo va qorqizlar borligiga ishonaman. Oppoq qor, sukunat falsafasi buyuklik, samimiyat, sirli mo'jiza bo'lib tuyuladi menga.

Yangi yil arafasida yam-yashil archa bezatilib, sho'x-shodon qo'shiqlar, diltortar raqslar ijro etiladi, noz-ne'matlarga to'kin dasturxon atrofida shirin xotiralar eslanadi. Darvoqe, odamlar ham bu bayram bahonasi-da bir-birlariga sovg'a ulashadi. Siz-chi, yalnlaringizga sovg'a berganmisiz?

Yangi yil – bolalar bayrami. Ular soat sahashga odatlangan. Buni qarangi, ko'p asrlik

iy kitoblar sovg'a qildi. Yangi adabiyotlar nainki kutubxona fondini boyitdi, balki bir necha avlod o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltirishga ham xizmat qilishi shubhasiz.

– Yutboshimiz biz, g'allakorlarga yo'llangan tabrigida kamtarin mehnatimizga yuksak baho berganidan beixtiyor to'liqlandim.

Xonadonimizga qut-baraka bilan birga quvonch, xursandchilik kirib kelgandek bo'ldi. Prezidentimizning "Dunyoda mehnatkash insonlar juda ko'p, lekin og'ir sinovlarda toblangan o'z fidoyiligi va matonati, chidamliligi va oliyanobligi bilan ajralib turadigan o'zbek dehqonlariga yetadigan, ularga teng keladigan odamlar kam, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman" degan so'zlari yurtimizda inson omiliga e'tibor qanchalar yuksakligidan dalolat emasmi?! – deydi Muxtor aka Nurmuhammedov.

Tonggi shudring va bug'doy, kulcha manzarasi yana ko'z o'ngimda jonlandi. Osmoni tinch-osuda, rizqi bus-butun elning farovon hayotida har ikki majoz uyg'unlashgandek tuyuladi menga.

madaniyatga ega Yevropaning ayrim mam-lakatlari Rojdestvo kuni Yangi yil mavzusiga bag'ishlangan kitoblar mutolaa qilish an'ana tusini olgan ekan. Hatto bu borada mamlakat miqyosida turli tadbirlar, tanlovlar uyushtiriladi. Shuningdek, AQSHning o'nlab shtatlarida ham maktab o'quvchilari va kichik yoshlilar o'rtasida "Bolalarning Yangi yil haqidagi qisqa hikoyalari" tanlovi muntazam o'tkazib kelinadi. Ulardan ba'zilarining ijodiy ishlarini global tarmoq orqali "varaqlarkan-man", joriy yilgi tanlov ishtirokchisi Ellen Ro-benfield ertagi e'tiborimni tortdi. "Yanvar va Malika" ertak-hikoyasida shunday dialog bor: Malika zo'rg'a:

- Ey, yaxshilar, men ham olovda isinib ol-sam maylimi? Sovuqda muzlab qolayozdim, - dedi gulxan atrofida o'tirganlarga yuzlanib.

- Nega bu yerga kelding? - isinayotgan-lar ichida yoshi ulug'i hayron bo'lib qizchaga tikildi.

Qiz, tanasiga biroz iliqlik yugurgach, qulupnay qidirayotgani, agar uni topolmay qaytsa, o'gay onasi va arzanda opasi uyga kiritmasligini aytdi. Yanvar unga yanada rah-mi kelib qaradi: "Axir, qishning qorli-qirovli kunlarida qulupnay o'smaydi-ku?!"

- Bilaman, - dedi qiz o'ksinib, - lekin opam, onam qulupnay olib borishimni buyur-gan. Sizlardan iltimos, uni qayerdan topishim mumkinligini aytinglar...

Shunda Yanvar qo'lidagi tayochchani olov ustida silkitib, amr etdi: "Iyun, birodar, tuh-fangni namoyon qil". Iyun unga itoat etdi va bir zumda qorlar eridi, yer maysa bilan qop-landi, daraxtlar barg bilan bezandi, qushlar qo'shiq kuyadi, o'rmonda turfa gullar yastan-di. Shu kez yulduz shaklidagi chechaklar om-maviy tarzda qulupnaylarga aylandi.

- Ularni tezda terib ol, Malika, - dedi Iyun.

Malika xayrlashar choq ularga minnatdor-lik bildirdi va etagini qulupnayga to'ldirib, baxtiyor kayfiyatda uyiga yugurdi. Helen va uning onasi yoqimli hidi uyni to'ldirgan qulupnaylarni ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi.

- Qayerdan topding bularni? - so'radi He-len.

- Huv tog'lar ortidan, o'rmon orasidan, - javob qildi Malika.

Helen xushta'm mevaning bir necha dona-sinigina onasiga berib, qolganini o'zi paqqos tushirdi. O'gay qizining qadamini kutmagan ona va uning arzandasi oradan uch kun o'tib,

uni qizil olma olib kelish uchun yana eshikdan haydab soldi.

– Chaqqonroq yugur, Malika, – dedi opasi va ortidan bu gapga onasi qo'shimcha qildi:

– Daraxtdan yangi uzilgan, qirmizi olma topmaguncha, uyga kelishni xayolingga ham keltirma!

Yanoqlari olmaday qizargan Malikaning "Eh, opaginam, daraxt bargi ham tugab bitgan qish qahratonida olmani qayerdan topaman?!" degan gapi ichida qoldi. Bechora qiz shu alpozda tog'larni yig'latib, qalin qorlar bo'ylab tag'in o'n ikki oy va gulxan yonidan chiqdi. Ular hamon o'sha yerda o'tirar, eng baland o'rindan esa Yanvar joy olgandi.

– Ey, yaxshilar, men ham olovda isinib ol-sam maylimi? Sovuqda muzlab qolayozdim, – dedi Malika gulxan atrofiga yaqinroq kelib.

– Yana nega bu yerga kelding, nimani qidirypsan? – so'radi Yanvar.

– Qizil olmalarni qidirib keldim, – javob qildi Malika.

– Lekin hozir qish, qizil olma topishing am-rimahol-ku, – dedi yana oylar to'ng'ichi.

– Bilaman, – deb javob berdi qiz, – lekin onam va opam meni qizil olma olib kelish

uchun yubordi. Agar mevasiz qaytsam, holimga voy.

Shunda Yanvar o'rnidan turdi, o'z o'rnini Sentyabr bilan almashib, olov ustida tayoq-chasini silkitdi. Birpasda qor yo'qolib, daraxt barglarining sarg'ish jilosi, kuz manzarasi paydo bo'ldi. Keyin balandlikda o'sgan bir daraxt ko'rindi, shoxlarida qirmizi olmalar osilib turardi. Sentyabr uni tezda terib olishni buyurdi. Qiz mamnun bo'lib, daraxtni silkitdi. Dastlab, bir olma tushdi, keyin boshqalari...

– Endi uyingga shoshil! – dedi Sentyabr.

Oylarga minnatdorlik bildirgan Malika iziga qaytdi. Uyda Helen va uning onasi tayinlangan mevani ko'rib hayron qoldi.

Ammo olmalarning maza-matrasini yo'q edi.

– Qayerdan keltirding? – so'radi Helen.

Bunga javoban Malika baland tog' ortida, o'rmon ichida sodir bo'lgan mo'jizani so'zlab berdi.

– Xo'sh, nega endi hammasini bitta qo'y-may terib olmading? – jahl bilan gapini davom ettirdi opa. – Hoynahoy, yo'l-yo'lakay eng shirinlarini o'zing yeb qo'ygandirsan, iltirizak? Endi meni eshiting, ona! Qunduz terisidan tikilgan paltomni bering. Men o'sha daraxtni topib, olmalarning eng shirinini terib

kelaman. Oylar "To'xta!" deyishsa ham, eng so'nggi olmani olmaganimcha qaytmayman!

Onasining hoy-hoylaganiga qaramay, u qavat-qavat issiq kiyimlarga o'ralib yo'lga tushdi. Safarxaltasiga bir necha kunlik oziq-ovqat joylashni ham unutmadi. O'rmonda mo'l yurib, tinka-madori qurigan Helen ayoزدan o'zini yo'qotib qo'yayozdi va o'gay singlisini bo'ralab qarq'adi. Biroz vaqt o'tgach, unga nariroqda gulxan ko'rindi va jonholatda o'sha tomonga odimladi.

Otashin olov, o'n ikki o'rindiq va unda o'n ikki oy o'tirardi. Avvaliga u quvonib ketdi, lekin atrofdagilardan izn so'rab o'tirmay gulxan yaqiniga kelib, qo'llarini isitdi.

– Bu yerga seni qay maqsad olib keldi? – deb so'radi Yanvar.

– Senga nima, maqsadimni aytishga majbur emasman, kulrang qariya, bildingmi? – deb g'o'ldiradi u. – Shuni bilging kelayotgan bo'lsa, ko'z o'ngimda tezroq olma, keyin qulupnay, yong'oq, olcha daraxtlarini o'stirib ber!

Helen Yanvarning ishorasini ham kutmay, singlisi tasvirlagan balandlikka o'tib olib, mo'jizani kutdi. Yanvar qovog'ini soldi va boshini silkitib yuborgan edi, shu zahoti os-

monni qora bulut qoplab, qizning boshi uzra muzli shamol va qor bo'roni yog'ildi.

Ona esa uyda farzandini intiq kutardi. U derazadan qaradi, eshik oldidan kuzatdi, lekin qizi kelmadi. Soatlar sekinlik bilan o'tdi, lekin Helen qaytmadi.

"Olmaning ta'mi-chiroyiga maftun bo'lib, uyi yodidan chiqib qoldimikan yoki hamma mevalarni ko'tarolmay, meni kutib o'tirgan bo'lsa kerak, eh sho'rlikkinam", – deya o'yladi onasi. So'ng qizini qidirib o'rmonga yo'l soldi. Tog'da ona izg'irin shamoli yanglig' hushtak chaldi, lekin aks sadodan bo'lak hech narsani eshitmadi.

Malika ularni uzoq kutdi, ammo na o'gay ona, na Helendan darak bo'ldi. Kunlardan bir kuni qishloq cho'ponlari tog'da ona-bolaning jonsiz tanalarini topgani butun qishloqqa ovoza bo'lib ketdi. Kichik uy, hovlidagi sigirlar – barcha-barchasi Malikaga meros qoldi. Yangi yil kechasi arafasida qiz qallig'i bilan nikohlandi va tinch, baxtli hayot kechirdi.

Kitob shaydosi fursat tanlamaydi!

Ayni kez jizzax shahridagi harbiy qismlarning birida yigitlik burchini ado etayotgan Shahridin ham kitob shaydosi. Asli shero-

bodlik o'g'lon bolalikdan aka-uka Grimmlar, Hans Kristian Andersen, Nodar Dumbadze eraklari bilan birga "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlari-yu buyuk sarkarda bobolarimiz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur haqidagi kitoblarni o'qib ulg'aydi. Otasi Shavkat aka ziyoli, onasi Zaynab opa maktabda o'zbek tili va adabiyoti muallimasi bo'lgani bois oilaviy muhitda kitobxonlik yetakchi o'rin tutdi.

— Safdoshlarim bilan yangi yilni oila bag'rida kutib olmayotgan bo'lsak-da, ammo oila muhitini yaratuvchi mutolaa zavqidan bahra olyapman, — dedi oddiy askar Sh. Mamatov. — Hayotimda o'chmas iz qoldirayotgan yil arafasida harbiy qismda Marsel Brionning "Menkim, Sohibqiron — jahongir Temur" asarini qayta-qayta o'qib chiqyapman. Negaki, unda Temur bobomizning, ayniqsa, qish chillasida xalqparvarlik, adolat uchun kurashgani, jang-u jadallar olib borgani aynan shuurimda kechayotgan o'y-xayollar, mardlik, jasorat, vatanparvarlik tuyg'ulari va harbiy xizmat tarziga hamohangdir.

... Osmonda tundan tonggacha yulduzlar porlab, Grigoryan taqvimi bo'yicha birinchi kun — Yangi yil kirib keldi. Bu do'stlar bilan diydorlashish, o'tmishni sarhisob qilish, ke-

lajakning yana bir sahifasini ezgu umid bilan varaqlashdan tashqari, yangidan yangi asarlar, ma'naviy olamimizni bezovchi kitoblar mutolaasi uchun ham ajoyib fursatdir. Ana shu mashg'ulot hayotda nima bo'lishidan qat'i nazar, bizni mehr-u oqibatga, yaxshiliklarga undab tursa, ajab emas.



BOBO IBRAT KO'RSATADI

Tong yorishib ulgurmay, qishloq ahli barvaqt uyg'onadi. Dimoqni xushlovchi toza havoga hech narsa teng kelmaydi. Oqila buvimning aytishicha, erta turgan kishiga g'oyibdan baraka yog'ilar ekan.

Subhidamda chorva-churug'ining tobi qochgan hamqishloqlar dadam (kasbi zooveterinar)ni dam-badam yo'qlaydi. Bugun nushta mahali biznikiga kelgan mahalla oqsoqoli Haydar ota salom-alikdan so'ng gapni cho'zmay, maqsadga ko'chdi: "Shodiqulning yaqinda uylangan o'g'li ajrashmoqchi emish. Ahmoq-da... Kelin bilan chiqisholmayapti, shekilli, kelinposhshaning ajrashish niyati yo'q. Qudalar bama'ni odamlar. Bu qishloqqa tushgan kelinlar hanuzgacha yangi oilasidan norizo bo'lib, ota uyiga qaytgan emas. Bunga yo'l qo'ymaganmiz. Turmushda nimalar bo'lmaydi, deysiz?! Qani, otlaning. Shodiqulning o'zi yoshlarni yo'lga sololmayotgan ko'rinadi. Bir aqlini kiritib kelaylik".

Do'stlik tumanidagi "Navro'z" qishloq fuqarolar yig'inida keksalik gashtini surayotgan mo'ysafid oqsoqollar singari Haydar ota

Shukurov ham el g'amini o'z dardi deb biladi. U kishi tumandagi 6-umumta'lim maktabini uzoq yillar boshqarib, hozir nafaqada, sakkiz farzand, o'ttizga yaqin nevara, to'rt evara ardog'ida. U kishi doimo qishloqdoshlari tashvishi bilan yashaydi.

"Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni, 2000-yili esa "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan Haydar Shukurov rahbar sifatida qo'l ostidagi 50 pedagogga, avvalo, kasbini sevishni, chin dildan va halol mehnat qilishni uqtiradi va shaxsiy namuna ko'rsatadi.

Tong-saharlab otaning fayzli hovlisidan anvoyi gullar ifori anqiydi. Ota nabiralari bilan olma terishga kirishgan. Bog'da 50 tupdan ortiq turli mevali daraxt bo'lib, bir yillik hosilidan o'rtacha 2,5-3 million so'm daromad olish mumkin. Buning zamirida esa mehnat, harakat, matonat, qanoat singari fazilatlar mujassam. Bobo nevara-yu evaralarini ham mehnatga, sabr-u qanoatga o'rgatishdan charchamaydi.

Adabiyotni sevgani, qadrlagani bois shoir-larimizning dilga yaqin she'rlari uning tilidan tushmaydi. Ayni damda u akademik shoir Oybekning "Vatan" she'rini kuyga solib xirgoyi

qiladi va shu orqali bog'da ishlayotgan nevaralarining hordig'ini chiqaradi:

Vatanni sev, tuprog'ini o'p,

Har qarichi muqaddas bizga.

Hatto cho'lidagi quruq cho'p

Eng yaqindir yuragimizga.

U kishining nevaralari adabiyot muxlisi. Bitta yangi kitob xarid qilinsa, qo'lma-qo'l bo'ladi. Turmushning achchiq-chuchugini boshdan kechirgan Haydar boboning xulosa-si shuki, bu yorug' olamda har bir insondan yaxshi nom, qobil farzandlar va bog'-u rog' qolishi kerak...

Haydar ota Ruxsat ona bilan ikki o'g'il, olti qizini o'qitdi, uyli-joyli qildi. Pedagogning farzandi bo'lish ularga faxr-u iftixor bag'ishlashi bilan birga katta mas'uliyat ham yuklaydi.

– Men o'qigan maktabda dadam direktor bo'lgani bois sinfdoshlarimga nisbatan o'qishda, jamoat ishlarida menga ikki hissa ko'proq talab qo'yilardi, – deydi o'g'li Zafar Shukurov.
– Dono xalqimizning "Agar bo'lsang ilmi tolib, ustozlardan qolgin olib" deganlaridek, berilgan pand-u o'g'itlarga qat'iy amal qilganimiz uchunmi, barcha shogirdlari qatori hayotda o'z o'rnimizni topdik, kam bo'lmadik. Dadamdan benihoya minnatdorman.

– Nima bo'ldi-yu, bir kuni o'zimcha sho'xlik qilib, bobomdan beruxsat otga minib, bexos yiqildim. Qo'lim singani uchun shifoxonaga yotishga majbur bo'ldim, – deydi boboning nevarasi, Oqoltin tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi O'ktamjon Haydarov. – Urishmadi, dashnom bermadi. Ibratli rivoyat keltirib, xulosasini o'zimga qoldirdi. Tug'ilgan kunimizga u kishidan kitob olamiz. Kitob inson qalbini yoritib turadi, deydi bobom. Do'st tanlashda adashmaslikni, to'ng'ich farzand bo'lganim uchun ukalarimga e'tiborli bo'lishni uqtiradi.

Oqoltin tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi O'ktirbek Haydarov o'tgan yili bilimlar bellashuvining viloyat bosqichida matematika fani bo'yicha uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, bu yil ham viloyat bosqichida yuqori natija qayd etdi. Bu natijaga erishishda bobosinning pand-u nasihatlari qo'l kelgan bo'lsa, ajab emas.

"ZULPAK"KA SIG'MAGAN XITOBLAR

- Do-osto-on-u-u...

Bu xitob "Tangalik bolalar" filmidan emas. Kino bosh qahramoni buvisining chaqirganini garchi olisda bo'lsa-da, eshitadi, ammo qulog'i quloqlik (naushnik) bilan band o'zimizning Doston besh metr naridagi onasining ovozini eshitmayapti. U musiqaning "sehr"iga berilib, allambalo harakatlar bilan o'ynamoqda, jazavaga tushgan odamdek dam-badam tebranadi. Yigitcha quloqlikning "jinni" siga aylangan.

O'rtoqlari bilan uchrashdi deguncha ota-onasining pand-nasihatlari o'z kuchini butkul yo'qotadi. Kechagi eski musiqa o'rnini yana yangilari egallaydi, "zo'r"laridan telefoniga yuklab oladi. Quloqlik yana quloqqa ilinadi. Yaxshiyamki, uyda ko'pni ko'rgan, turmushning achchiq-chuchugini tatib, keksalik gashтини surayotgan dono buvisi bor. Unga nabiralarning barcha xatti-harakatlari kundek ayon. Omongul aya nainki Doston, balki boshqa nevaralariga ham pand-nasihat qilishdan erinmaydi.

"Qulog'ingga bu "zulpak"ni yaqinlashtirma, yarashmaydi, husningni buzadi" deya fikr-u

e'tibori kun bo'yi ish bilan mashg'ul o'g'lining tarbiya bobidagi mas'uliyatiga yelka tutadi. Omongul aya transport yoki ko'chada "zulpa-k"li o'g'il-qizlarni ko'rganida xuddi o'z dilbandidek quloqlikning zararli oqibatlaridan ogohlantirish, ibratomuz nasihat va hayot tajribasini uqtirishdan charchamaydi. Ha, ko'pni ko'rgan nuroniy otaxon-u munis, duogo'y buvijonlar baxtimizga bor bo'lsin! Doston buvisining ko'magida bu matohdan butunlay voz kechdi. Hozir u mahalladagi hunarmanddan yog'och o'ymakorligi sirlarini puxta o'rganmoqda. Agar voz kechmaganida nima bo'lardi?

Qolipidan ko'chgan g'isht

Yaqinda poytaxtimizdagi texnik savdo majmualaridan biriga yo'lim tushdi. Rastalar gavyum. Bir-biridan bejirim telefon-u quloqliklar, eng so'nggi rusumdagi texnikalarni tomosha qililar ekanman, xaridor yigitcha va sotuvchining suhbatini e'tiborimni tortdi.

- Chetda turgan naushnikni ko'rsatib yuboring. Ishqilib, ovozni past chiqarmaydimi? - dedi o'smir tovarlarga mahliyo bo'lib.

- Yo'q, bu eng zo'ri. Basslari quloqni qomatga keltiradi, ukam, - deya mahsulotini maqtay ketdi sotuvchi.

– UZR, yaxshi tushunmadim, nima dedingiz?..

– Eh, musiqani baland eshitaverib, qulog'ing ham "yetilib" qolibdi-ku, og'ayni, – deya shivirladi haligi kishi.

Beixtiyor bir voqea yodimga tushdi. O'ziga to'q oilaning to'ng'ich farzandi kun bo'yi quloqlikni qulog'idan tushirmasdi. Bora-bora unda boshlang'ich sinf o'quvchisiga xos bo'lmagan g'o'ldirash odati paydo bo'ldi. Hanyajonlanganida kipriklarini piri-pirata-digan, odamovi bo'lib qoldi. Bir kuni oila davrasidagi suhbatda otasi o'g'lining eshitmayotganini payqadi. Onasining ham tinchi buzildi. Shifoxonaga olib chopishdi. Otorinolaringologdan o'g'lining eshitish qobiliyati susaygani, og'ir xastalik alomatlari borligini eshitib, tahlikaga tushishdi, ko'ziga dunyo qorong'i ko'rindi. Voqea qanday yakunlandi, dersiz? Sog'lom yurgan bola 5-sinfdan ta'limni zaif eshituvchi bolalar maxsus-maktab internatida davom ettira boshladi. Mana, sizga quloqlikning fojiasi!

Sof insoniy tuyg'ularsiz hayot...

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Mu-yassar Ahmedova quloqlikka tabiiy va samimiy insoniy tuyg'ular kushandasi deya baho beradi. U o'zaro do'stona aloqalarni mustah-

kamlab, toza tilak va izhorlarni muayyan makkonda yuzma-yuz eshitish lazzatini bermaydi.

– Baland va davomli shovqin javob reaksiya ta'siri sifatida subyektiv tinnitus (faqat tinglovchining o'zigagina eshutiladigan jiringlash yoki past tovush) hodisasini keltirib chiqaradi, – deydi psixolog. – U juda xavfli simptom bo'lib, eshitish jadal sur'atda pasayib boradi. Do'stlik, rostgo'ylik, iroda, mardlik, hurmat singari hissiyotlar o'rmini ularning aksi egallaydi. Nutq va tafakkur, diqqat va xotira rivojlanishida salbiy o'zgarishlar ro'y beradi. Hayotdan quvonish kayfiyati, ruhan va jismonan tetiklik susayib, atrofdagilarga nisbatan e'tiborsizlik kayfiyati tug'iladi. Muloqot jarayonida turli imo-ishoralar birinchi o'ringa chiqadi.

Inson bir vaqtning o'zida ikki o'lchovli holatda: tanasi real voqelikda, muhim sezgi a'zolaridan bo'lgan eshitish xususiyati virtual hududda bo'ladi. Bunday paytda miya tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqelikni to'liq baholay olmaydi, idrok etmaydi. Quloqlik bu holatni yanada qiyinlashtiradi. Bu vosita ikki turga bo'linadi. Kichik, ya'ni tabletkasimon quloqlik tashqi shovqindan muhofaza qila olmaydi. Oqibatda foydalanuvchi pleyer tovushini yanada balandlatadi. Quloqni suprasi bilan to'liq berkitadigan esa

katta quloqlik hisoblanib, ayni paytda ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Tinglovchi bu moslamani taqqanda baland musiqa va kuchli bass ta'sirida chetdan kelayotgan boshqa ovozni mutlaqo eshitmaydi.

Nutq va xotiraga hujum

XX asrning 70-yillari oxirida Yaponiyada turli rumumdagi texnik aloqa qurilmalari kashf qilinishi tufayli eshitishning zaiflashuvi muammosi keng tarqaldi. Quloqlikda musiqa tinglash va karlik orasida bog'liqlik aniqlangach, Yevroittifoq mutaxassislari bu muammoga jiddiy e'tibor qarata boshladi. 2009-yildan "Ipode" tipidagi moslamada eshitish me'yori 80 detsibeldan oshmasligi, bu me'yordan oshganda eshitish organiga ziyon yetkazishi haqida ogohlantirish jumlasini qurilma qo'llanmasiga yozib qo'yiladigan bo'ldi.

– Odam qulog'i 16 dan 20 ming gersga cha chastotali tovushni farqlay oladi, – deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi "Quloq, tomoq va burun kasalliklari" kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Xolida Shayxova. – Bu tovushlar nog'ora pardani tebratib, eshitish nervi orqali bosh miyaga o'tib, eshitish markaziga yetib boradi. Sog'lom odamda eshitishning yoshga doir o'zgarishi 30 yosh-

dan so'ng boshlanadi. Bu jiddiy ahamiyatga ega bo'lmay, faqat 55–60 yoshda yaqqol seziladi. Ammo baland tovushning uzoq muddatli ta'siri kichik yoshda ham fojiaiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shifokorlar bu kasallik bilan og'rikan 30–40 yoshdagi bemorlarning ko'pchiligi o'smirlik davrida eshitish moslamasidan foydalanganini aniqlamoqda. Inson qulog'i davomiyligi qisqa bo'lgan baland tovushlardan himoyalangan. Ammo uni audio-pleyerdan taraladigan 110 va undan ortiq detsibelli tovushlardan himoya qilishning iloji yo'q. Eshitish moslamasida ovozni pashaytirish qiyin, tovush 110–130 detsibelgacha balandlaydi. Bu esa eshitish qobiliyatini shikastlaydi, miyani karaxt qiladi. Zamonaviy quloqliklarda yuqoridagi kabi tovush balandligiga osonlikcha erishish mumkin. Sog'lom odam qabul qiladigan eng past chastota 10–15 detsibeldir. Shivirlash 20, odatdagi suhat 30–35, baland ovozda baqirish chastotasi 60–65 detsibelga teng bo'lib, bu inson uchun yoqimsiz sanaladi. 90 va undan ortiq detsibelli tovush eshitish uchun xavfli. Baland tovushning davomli ta'siri muqarrar ravishda xunuk oqibatlariga olib keladi. Qisqa muddatli shovqin ta'sirida ichki quloqning tukli hujayralari generatsiyalanadi, eshitish o'tkirli-

vaqtincha va kuchsiz holda pasayadi. Baland ovoznining muntazamligi esa asab hujayralarini jiddiy shikastlab, qayta tiklanmaydi.

Quloqlik tashqi eshituv yo'lini berkitadi va quloq terisida joylashgan oltinugurt ishlab chiqaruvchi bezlarning faoliyatini pasivlashtiradi. Natijada tashqi eshituv yo'lida oltinugurt tiqini rivojlanadi, ichki quloqqa infeksiya tutishishiga sharoit yaratadi.

Yo'lda hushyorlik zarur!

Ko'cha-ko'ya, jamoat transportidagi yoshlarning ko'pchiligida quloqlik ko'rasiz.

– Quloqlik blutuz aloqa vositasi kabi qo'shimcha komponentlar orqali haydovchi ruhiyatiga ta'sir qiladi, diqqatini chalg'itadi. U orqali biror sovuq xabar eshitgudek bo'lsa, beixtiyor boshqaruvni yo'qotib, avtohalokat sodir etishi hech gap emas. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 12 ming nafardan ziyod haydovchining ana shunday qo'shimcha texnik uskuna va telefondan foydalanish holati aniqlanib, ularga tegishli chora ko'riladi, – deydi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi matbuot xizmatlari inspektori Aziz Murodov. – Taqqoslanganda bu ko'rsatkich yil sayin ortayotgani kuzatildi. Biror tasodifiy holat sodir bo'lganda

haydovchi to'satdan tormoz berishga majbur bo'ladi. Shunday paytda jamoat transportidagi yo'lovchi maxsus dastakni ushlab yurish o'rniga qo'lida telefon, qulog'ida quloqlik taqib, xayol og'ushida ketayotgani tufayli turli darajada tan jarohati olayotgan holatlar ham uchramoqda. Yo'lovchi va haydovchilarning xavfsizligini ta'minlashda quloqlik katta g'ov bo'lib, turli ko'ngilsizlik va muammolarni keltirib chiqarayotgani tashvishlanarlidir.

Tibbiy ko'rik foydali

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, televideoniye, radiojurnalistlari kasb taqozosi bilan zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanadi. Ovoz rejissyori, dispetcher, radioboshlovchilarning qulog'ida quloqlik yoki boshqa bir eshitish moslamasini ko'rsak ajablanmaymiz.

– Har kuni quloqlikdan foydalanishimizga to'g'ri keladi, – deydi "Oriyat dono" radiosining taniqli suxandoni Akmal Mirzo. – Kun jarayonida elektron sintezator yordamida yozib olingan, zarb bilan chalish natijasida chiqadigan shovqin-suronli musiqalarni ko'p tinglaymiz. Quloqlikning sog'lig'imga zararini bilganim bois yil davomida otorinolarolog shifokor nazoratidan o'tib turaman.

Balog'at yoshiga yetmagan ayrim yoshlarning quloqlikni o'z "imij"iga aylantirib olgani achinarli holdir. Qovun qovundan rang olar, deganlaridek, har 10 nafar o'quvchining yarmidan ko'pida naushnik ko'rasiz. Agar keng jamoatchilik - ota-onalar, pedagoglar, shifokorlar, mahalla faollari, huquq-tartibot idoralari xodimlari tobora ommaviy tus olib borayotgan "quloqlikka qullik"ning oldini olishga e'tibor qaratmasa, yosh avlod salomatligida katta muammolar kelib chiqishi mumkin. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak? Xalq ta'limi vazirligi ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'limi boshlig'i Hikmatilla Daminov shunday fikr bildiradi:

- Quloqlikli yoshlarning aksariyati hali uning sog'liqqa zarari haqida to'liq tasavvurga ega emas. Shuning uchun kompyuter, televizor, internet, mobil telefon yoki quloqlikdan o'rinni foydalanish bo'yicha mutaxassislar maslahatini ta'lim dargohlarining o'zida tashkil qilish zarur. Zamonaviy vositalarga haddan tashqari berilishning oqibatlari aks etgan videofilmlarni namoyish qilish yoshlarning to'g'ri xulosa chiqarishini ta'minlaydi. Yozgi ta'tilda bunday targ'ibot ishlarini sport majmualari, "Barkamol avlod" markazlari va oromgohlarda tashkil etish,

ayniqsa, samaralidir. Umumiy amaliyot shifokorlari, mutaxassislar suhbatini maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham o'tkazish foydadan xoli bo'lmaydi.

Ikki holat: otaxon yonboshlagan cha radio-da mumtoz kuy tinglab, ruhan hordiq chiqarmoqda. Ko'zlari yumuq, kuy sehdidan mast. Nevarasi qulog'iga naushnik tiqib, boshini har tomonga qimirlatadi. Borliqni esa eshitmaydi. Naushnik orqali kelayotgan shovqin quloq pardasini teshib yuborgudek bo'ladi...

Siz qaysi bir holatni yoqlaysiz, aziz o'quvchi?



MUNDARIJA

Salim Ashur. El dardini o'z dardi deb.....	3
"Monitor bola".....	6
Ertak so'ylab berardi buvim.....	13
Dehqoni so'z.....	26
Bobo ibrat ko'rsatadi.....	41
"Zulpak"ka sig'magan xitoblat.....	45

1.563 40m

UO'K: 821.512.133-95

KBK: 83.3(50'zb)

R 99

R 99 **Ro'ziqulov, Dilshod.**

Dehqoni so'z [matn]: *Badiiy publitsistika / D. Ro'ziqulov.* - Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 56 b.

Adabiy-badiiy nashr

DILSHOD RO'ZIQULOV

DEHQONI SO'Z

Badiiy publitsistika

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhah: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 1/32

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,75.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №382.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



DILSHOD RO'ZIQULOV
DEHQONI SOZ

Dilshod Ro'ziqulov
1993-yil 16-sentyabrda Jizzax viloyati
Do'stlik tumanida tug'ilgan. 2016-yil
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti xalqaro jurnalistika
fakulteti, 2019-yili O'zbekiston Milliy
universitetining jurnalistika
fakultetini bitirgan. Hozirda
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
doktoranti hamda «Vatanparvar»
gazetasida faoliyat yuritmoqda.
2020-yilda Respublika yosh
ijodkorlarining onlayn tarzda
o'tkazilgan Zomin seminari
ishtirokchisi.

“ADABIYOT”
NASHRIYATI

ISBN 978-9943-6781-2-5

